

DAVLAT XIZMATINING REGLAMENTI

Xizmat nomi: Neft mahsulotlarini avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash

Xizmat haqida:

Neft mahsulotlarini avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash

Xizmatning sohaga tegishliligi: Litsenziyalash va ruxsat etuvchi xujjatlar.

Xizmatdan foydalanuvchining toifasi: Yuridik shaxslar.

Bog'lanish: Buxoro viloyati hokimligi

Xizmatni ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan hujjatlar (nuxsalar soni):

a) yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqliy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, faoliyatning (yoxud uning bir qismining) litsenziyalanadigan turi ko'rsatilgan holda litsenziya berish to'g'risidagi ariza; b) yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohtonomaning notarial tasdiqlangan nuxsasi; v) litsenziya berish to'g'risidagi arizaning litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat; g) faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun foydalaniladigan standartlar, normalar va qoidalarga muvofiq keluvchi binolar, inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari va texnologik asbob-uskunalariga egalik huquqining yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligini tasdiqlovchi hujjat; d) "O'zdavneftgazinspeksiya" hududiy bo'limining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlarining neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, hisobga olish va sotish uchun asbob-uskunalar bilan taminlanganligi holati, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maxsus ma'lumotga egaligi to'g'risidagi xulosasi; e) O'zbekiston Respublikasi "Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiya bo'linmasining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va sotishda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga oid qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi; j) yong'in nazorati hududiy organlarining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining yong'indan saqlash talablariga muvofiqlik to'g'risidagi xulosasi; z) "O'zstandart" agentligining hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari tomonidan beriladigan metrologik taminot to'g'risidagi xulosa; i) O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bo'linmasining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining tabiatni muhofaza qilish va ekologiya talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi.

Xizmatni ko'rsatishning huquqliy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Neft mahsulotlarini sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 2003 yil 28 iyundagi 289-son qarori;
2. O'zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi 2000 yil 25 maydagi 71-II-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgust "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 181-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida" 2015 yil 4 fevraldagi PF-4702 son farmoni) va 14.02.2015 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2203, 4702 - qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.06.2015 yildagi 171-sonli qarorlari.

Xizmat narxi va to'lash tartibi:

Litsenziya berish to'g'risidagi arizaning ko'rib chiqilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Xizmatni ko'rsatish muddati:

Litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun hujjatlarni ko'rib chiqish muddati litsenziya olishga ariza va barcha zarur hujjatlar tushgan kundan boshlab o'ttiz kunni tashkil qiladi.

Natijani olish usullari: Shaxsan, pochta yoki elektron pochta orqali.

Xizmat natijasi:

Neft mahsulotlarini avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash bo'yicha arizani ko'rib chiqish to'g'risida xabarnoma.

Rad etish sabablari:

O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida" (2000 yil 25 may 71-II - son) qonunining 17 moddasiga ko'rsatilgan sabablar litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Shikoyat arizasi berish tartibi: Litsenziya beruvchi organ rahbariga murojaat etish.

Xizmatni ko'rsatish tartibi

Нефть маҳсулотларини автомобилларга ёнилғи қуйиш шохобчалари ва мой алмаштириш пунктлари орқали сотиш бўйича фаолиятни лицензиялаш

схемаси

